

PAPER

O‘ZBEK MUSIQIY MEROSINI ZAMONAVIY TA’LIMGA UYG‘UNLASHTIRISH

Murodova Durdonaxon Rayimjon qizi ^{1,*} and Yusupjonova Dilfuzaxon Olimjon qizi²

¹Farg‘ona davlat universiteti “Vokal va cholg‘u ijrochiligi” kafedrası o‘qituvchisi, p.f.f.d., PhD, dotsent

² Farg‘ona davlat universiteti Magistratura bo‘limi Musiqa ta’limi va san’at mutaxassisligi I bosqich magistranti

* murodova@gmail.com

Abstract

Maqolada o‘zbek musiqiy merosini zamonaviy ta’lim jarayoniga uyg‘unlashtirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi – milliy musiqiy qadriyatlar orqali yosh avlodda estetik tafakkur va vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishdir. Ishda tahlil va qiyosiy metodlardan foydalanilib, milliy musiqa o‘quv dasturlarida qo‘llanish imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan. Natijalar o‘zbek musiqiy merosini ta’lim jarayoniga integratsiyalash samaradorligini tasdiqlaydi. Xulosa sifatida, musiqiy merosni ta’limga uyg‘unlashtirish milliy o‘zlikni anglash va Vatanga sadoqatni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Key words: O‘zbek musiqiy merosi, zamonaviy ta’lim, milliy qadriyatlar, integratsiya, estetik tarbiya.

Kirish

Abu Nasr Forobiy shunday degan edi: “Musiqa fani shu ma’noda foydaliki, kimning fe’l-atvori muvozanatini yo‘qotgan bo‘lsa, uni tartibga keltiradi.” Bu hikmat o‘zida musiqaning inson ruhiyati va ma’naviy kamolotidagi beqiyos o‘rnini mujassam etadi. O‘zbek xalqining asrlar davomida shakllangan musiqiy merosi ham ana shunday ruhiy muvozanat va ma’naviy uyg‘unlik timsolidir. Bugungi globallashuv sharoitida zamonaviy ta’lim tizimida milliy musiqiy qadriyatlarni saqlab

qolish va ularni o‘quv jarayoniga uyg‘unlashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Undan tashqari, zamonaviy ta’lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri — milliy musiqiy merosni yosh avlod tarbiyasiga uyg‘unlashtirish, u orqali estetik did va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishdir. Shu ma’noda, o‘zbek musiqiy merosini zamonaviy ta’limga integratsiyalash masalasi nafaqat madaniy, balki pedagogik va ma’naviy jihatdan ham dolzarb hisoblanadi. Maqolada o‘zbek musiqiy merosini zamonaviy

Compiled on: December 4, 2025.

Copyright: ©2025 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Education* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

ta'lim jarayoniga integratsiyalashning pedagogik, madaniy va estetik jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot musiqa o'qituvchilari, san'at yo'nalishidagi talabalar hamda milliy qadriyatlarni ta'lim orqali yoshlar ongiga singdirish bilan shug'ullanuvchi pedagoglar uchun mo'ljallangan.

Asosiy qism

O'zbek xalqining musiqiy an'analari asrlar davomida sayqal topib, milliy ong va ma'naviyatning ajralmas bo'lagiga aylangan boy merosni tashkil etadi. Ushbu musiqiy xazina xalq hayoti, uning ruhiy kechinmalari, dunyoni idrok etish tarzi hamda qadriyatlar tizimi bilan chambarchas bog'liq holda shakllangan. Sharq allomalari — Forobiy, Jomiy, Navoiy va Darvesh Ali Changiy musiqani inson tarbiyasida kuchli ta'sirga ega ma'naviy vosita sifatida talqin qilganlar. Musiqa inson his-tuyg'ularini yuksaltiruvchi, ruhiy uyg'unlikni tiklovchi va estetik didni rivojlantiruvchi san'at turi sifatida qadrlanadi. Zamonaviy davrda ham ushbu merosning tarbiyaviy kuchi o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, uni ta'lim jarayoniga singdirish yoshlar ongida milliy o'zlikni anglash, ma'naviyatni mustahkamlash va komillikka intilish sifatlarini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda musiqashunoslik sohasi boshqa sohalar kabi keng qamrovli, ya'ni o'tmish manbalarini o'rganish (manbashunoslik), etnomusiqashunoslik, organologiya, folklorshunoslik, musiqiy sharqshunoslik, ijrochilik kabi bir qator yo'nalishlarni qamrab olgan. O'tgan asrning 90-yillariga qadar zamonaviy kompozitorlik ijodiyoti musiqashunoslar tadqiqotlarida keng va samarali ijod etilgan. O'zbek musiqashunoslik maktabining vakillari musiqaning barcha tarixiy va nazariy tarmoqlarida samarali faoliyat olib borganlar. Bunga O'zbekiston davlat konservatoriyasi professor-o'qituvchilari hamda San'atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti ilmiy jamoasi o'zlarining hissalarini qo'shganlar.

O'zbek musiqiy merosi ming yillar davomida xalqimiz ma'naviyatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida shakllanib, avloddan avlodga og'zaki va amaliy an'ana ko'rinishida yetib kelgan boy madaniy qatlamni tashkil etadi. Bu merosning eng muhim jihatlardan biri shundaki, u xalqning turmush tarzi, his-tuyg'usi, estetik qarashlari va

ma'naviy olamini o'zida mujassam etgan bo'lib, zamonaviy ta'lim uchun ham bebaho manba vazifasini bajaradi. Maqomlar ham xalqlarning o'ziga xos musiqa boyliklari asosida kasbiy sozanda va xonandalar tomonidan yaratilgan va uzoq madaniy-tarixiy taraqqiyot jarayonida mustaqil musiqa janri sifatida yuzaga kelgan. Maqom – ma'lum lad asosiga mos keladigan va muayyan pardadan boshlanadigan kuy va ashulalar majmuasidir. Hozirgi kunga qadar maqom kuy va ashula yo'llari turkumi ma'nosini ifodalab keladi. Milliy musiqiy boylikni ta'lim tizimiga uyg'unlashtirish orqali yosh avlodda estetik tarbiya, zehniy uyg'oqlik, milliy o'zlikni anglash va Vatanga sadoqat kabi fazilatlarni shakllantirish mumkin. Shu ma'noda, o'zbek musiqasi nafaqat badiiy hodisa, balki barkamol avlodni tarbiyalashga xizmat qiluvchi kuchli pedagogik vosita sifatida e'tirof etiladi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida musiqaning tutgan o'rni alohida e'tiborga loyiqdir. Chunki musiqa darslari o'quvchilarda nafaqat eshitish madaniyatini shakllantiradi, balki estetik tafakkurni rivojlantiradi, badiiy didni tarbiyalaydi va o'zlikni anglashga yo'naltiradi. Ayniqsa, o'zbek xalqining merosiga aylangan maqom, doston, lapar, qo'shiqlar va xalq cholg'ulari bilan ishlash o'quvchini milliy qadriyatlar bilan bevosita tanishtiradi. Bu jarayonning zamonaviy ta'lim bilan uyg'unlashuvi yoshlarning musiqaga nisbatan ongli munosabatini rivojlantirib, ularning dunyoqarashi, estetik didi va ma'naviy immunitetini kuchaytiradi. Bugungi globallashuv sharoitida turli madaniy oqimlar kesishgan davrda milliy musiqaning ta'limdagi o'rni yanada ortib bormoqda.

O'zbek musiqiy merosini zamonaviy ta'limga integratsiyalash jarayoni, avvalo, mazkur merosning badiiy, tarixiy va ma'naviy ahamiyatini o'quvchilarga tushuntirishdan boshlanadi. Bunda an'anaviy musiqaning kelib chiqishi, janr xususiyatlari, ijrochilik maktablari, cholg'ular tarixi va ularning badiiy imkoniyatlari haqidagi ma'lumotlar ta'limning ajralmas tarkibiga aylanishi lozim. Integratsiya jarayoni shunchaki qo'shilish emas, balki milliy san'at elementlarining zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashib, didaktik tizimga singishidir. Shu tariqa, musiqiy meros ta'limda jonli hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Bunday yondashuv ta'limni

biryoqlamalikdan xoli etib, o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida duch kelinayotgan muammolardan biri — milliy musiqaga qiziqishning ayrim hollarda sustligi va chet el musiqiy oqimlarining kuchli ta'siridir. Alohida ta'kidlash kerakki, yoshlarning estetik qarashlari tashqi axborot manbalari orqali tez o'zgarib bormoqda. Shu bois zamonaviy ta'limda milliy musiqa materiallarini nafaqat o'qitish, balki zamonaviy vositalar yordamida mazmunan jozibali ko'rinishda yetkazish muhim ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalar, audio-video yozuvlar, jonli ijro, sahnalashtirilgan mashg'ulotlar, folklor ekspeditsiyalari, mahalliy ijrochilar bilan uchrashuvlar — bularning barchasi o'zbek musiqiy merosining ta'limdagi samaradorligini oshiradi. Bunda asosiy maqsad o'quvchini bevosita estetik tajribaga olib kirishdir. Zero, eshitgan, ko'rgan va his qilgan merosgina shaxs ruhiyatiga chuqur ta'sir o'tkazadi.

Milliy merosni ta'limga uyg'unlashtirishning ijtimoiy natijalari ham beqiyosdir. O'zbek musiqiy merosini o'rganish jarayonida o'quvchi xalq tarixi, urf-odati, qadriyatlarini, dunyoqarashi bilan tanishadi. Bu esa unda milliy o'zlik, tarixiy xotira, Vatanga sadoqat va ma'naviy mas'uliyat tuyg'usini kuchaytiradi. Musiqa badiiy idrokni tarbiyalashi bilan birga, o'quvchini yaxlit shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Aynan shu omillar musiqiy merosni zamonaviy ta'limning ajralmas tarkibiga aylantirish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa

Globalashuv jarayonlari shiddat bilan ketayotgan hozirgi davrda milliy merosni ta'lim orqali asrash — madaniy xavfsizlik masalasidir. Ta'lim tizimi milliy qadriyatlarni himoya qiluvchi eng faol ijtimoiy institutlardan biri bo'lib, musiqiy meros bu borada katta tarbiyaviy salohiyatga ega.

O'zbek musiqiy merosi zamonaviy ta'lim bilan uyg'unlashganda, u muzey eksponatiga aylanib qolmaydi, aksincha, zamon bilan hamnafas bo'lgan tirik madaniy hodisaga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hikmatlar.uz sayti. URL: <https://hikmatlar.uz/author/182>
2. A.Jabborov, S.Begmatov, M.Azamova "O'zbek musiqasi tarixi". — Toshkent, 2018. 7-bet.
3. I.Rajabov "Maqomlar". — Toshkent, 2006. 40-bet.
4. O.Ibrohimov "maqom asoslari". — Toshkent, 2018. 5-bet.
5. I.Rajabov "Maqomlar". — Toshkent, 2006. 63–64-betlar.